

## “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK O‘YINLARNING SHAKLLARI VA AMALGA OSHIRISH METODLARI”

*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani*

*25 sonli Davlat maktabgacha talim*

*tashkiloti direktor o'rinnbosari*

**Abdullayeva Nigora Azamat qizi**

*E-pochta: [m.abdullayeva@gmail.com](mailto:m.abdullayeva@gmail.com)*

*<https://t.me/abdullayeva0100>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik o‘yinlarning shakllari va ularni amalga oshirish metodlari yoritilgan. Bolalarning har tomonlama rivojlanishida o‘yin muhim pedagogik vosita sifatida qaralib, uning turli shakllari va metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada pedagogik o‘yinlarning didaktik, rolli, harakatli va ijodiy shakllari, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri hamda samaradorligini oshirish usullari muhokama qilinadi. Pedagogik o‘yinlarni qo’llash orqali bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning samarali yo‘llari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim, pedagogik o‘yin, didaktik o‘yin, rolli o‘yin, harakatli o‘yin, ijodiy o‘yin, innovatsion metodlar, ta’lim samaradorligi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются формы педагогических игр и методы их реализации в дошкольных образовательных организациях. Игра рассматривается как важное педагогическое средство всестороннего развития детей, анализируются ее различные формы и методы. В статье также рассматриваются дидактические, ролевые, игровые и творческие формы педагогических игр, их влияние на образовательный процесс и методы повышения их эффективности. Описаны эффективные способы развития познавательной активности, самостоятельности мышления и творческих способностей детей посредством использования педагогических игр.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, педагогическая игра, дидактическая игра, ролевая игра, подвижная игра, творческая игра, инновационные методы, образовательная эффективность.

**Abstract:** This article covers the forms of pedagogical games in preschool educational organizations and methods of their implementation. The game is considered an important pedagogical tool in the comprehensive development of children, and its various forms and methods are analyzed. The article also discusses didactic, role-playing, action and creative forms of pedagogical games, their impact on the educational process and methods for increasing their effectiveness. Effective ways of developing children's cognitive activity, forming independent thinking and creative abilities through the use of pedagogical games are described.

**Keywords:** Preschool education, pedagogical game, didactic game, role-playing game, action game, creative game, innovative methods, educational effectiveness.

**Kirish.** Maktabgacha ta’lim davri bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi shakllanadi, tafakkuri va nutqi rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda pedagogik o‘yinlar yetakchi o‘rin tutadi. Pedagogik o‘yinlar bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bunday o‘yinlar bolalarga yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi, shu bilan birga, ularning ijtimoiy muhitga moslashishiga ham yordam beradi.

**Asosiy qism.** O‘yin texnologiyasi ham o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi. Har qanday o‘yin muayyan vazifalarni bajaradi:



Pedagogik ijrochilik o'yinlarini bola uch yoshdan boshlab o'zlashtira boshlaydi. Shu yoshga kelib bola odamlar o'rtaсидagi munosabatlar bilan tanisha boshlaydi, hodisalarining ichki va tashqi tomonlarini ajrata boshlaydi, o'zida ichki kechinmalarni sezsa boshlaydi. Ularga munosabat bildiradi. Maktabgacha yoshda boialar o'yin faoliyatini o'zlashtira borib ijtimoiy qadrli va ijtimoiy baholanuvchi faoliyatga tayyorlana boshlaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko'taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o'zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o'ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo'qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag'rikenglikni shakllantiruvchi.

8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'yinlar. Pedagogik o'yinlarni quyidagicha tasniflash mumkin. Faoliyat turlariga qarab: ijtimoiy intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik o'yinlar.

Pedagogik jarayonlarning xarakteriga qarab: ta'lim-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ijodiy, psixotexnik o'yinlar. O'yinlar metodlariga qarab: predmetli, sujetli, badiiy rolli, hodisalarini tasavvur etuvchi va dramalashtiruvchi o'yinlar. Predmetlar asosidagi o'yinlar: matematik, biologik, ekologik, musiqali, texnikaviy, jismoniy tarbiyalovchi, iqtisodiy tejamkorlik va ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantiruvchi o'yinlar. O'yin vositalari bo'yicha: o'yin vositalari [koptok, piramida, kub va boshq.] bilan amalga oshiriladigan o'yinlar va o'yin vositalarisiz amalga oshiriladigan o'yinlar xontaxta ustida, xonada va dalada o'ynaladigan o'yinlar, kompyuter va televizor o'yinlari kabi texnik vositalar. Maktabgacha ta'limda yoshi kattalarning to'plagan tajribasini kichik yoshdagilarga singdirish jarayonida o'yinlar ta'lim metodi sifatida namoyon bo'ladi. O'yin metodlariga qarab maktabgacha ta'lim vazifalaridan kelib chiqib, predmetli, sujetliishchan, dramalashtirilgan o'yinlardan keng foydalaniladi.<sup>1</sup> Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlarni o'quv tarbiya jarayonida qo'llash quyidagi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Birinchidan, rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar maxsus topshiriqlar majmuasidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, o'yin faoliyatidagi topshiriqlar rangli kublar, g'ishtchalar, kvadratlar, plastilin, karton qog'ozlar, konstmktor-mexanik majmularida turli ornament, rasm va jimjimador predmetlar vositasida amalga oshiriladi. Uchinchidan, topshiriqlar mustaqil bajarilishini ta'minlash maqsadida ulni osondan qiyinga tomon, aniq vaqt oralig'ida sifatli bajarilishini ta'minlash darkor. Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektdan faol subyektga aylanadi. Tarbiyachining asosiyan vazifasi esa o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat. Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrini to'g'ri bayon

<sup>1</sup> Ko'chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO 'LAJAK O 'QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O'RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783.

etishga, boshqalarni tinglashga o'rganadi, boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali keljakda har bir bola uchun zamin bo'lgan ijobiy sifatlar shakllantiriladi. Interfaol o'yinlarni samarali o'tkazish uchun quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim:

1. Mashg'ulot oldidan bolalar o'yin qoidalari va mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash.
2. Bolalarning yosh xususiyatlari va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning qobiliyati va psixologik xususiyatlarini e'tiborga ohsh.
4. O'yin jarayonida bolalarga qiziq bo'lgan materiallardan foydalanish.
5. Diqqat va e'tiborni jalb etadigan uslublarni izlab topish.
6. Bolalarga rollarni to'g'ri taqsimlash.
7. O'yindan qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish.
8. O'yining asosiy bosqichlari haqida tasawurga ega bo'lish va natijalarini prognoz qilish.

Pedagogik nuqtayi nazardan to'g'ri tashkil etilgan o'yin bolaning axloqiy irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O'yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O'yin texnologiyasi an'anaviy tarzdagi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

**Xulosa.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik o'yinlardan samarali foydalanish bolalarning jismoniy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yinlar bolalarning qiziqishini oshirib, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tabiiy va samarali shaklda tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, pedagogik

o‘yinlar orqali bolalar mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida o‘yin metodlaridan keng foydalanish zarurati ortib bormoqda. Yuqoridagi nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. “O‘zbekiston”, 2017 y. – 47-b.
- 2.Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016 y. 7 dekabr. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48b.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 29.12.2020-yil
5. Azizzxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.-T.: TDPU, 2000.52 b
6. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova “Maktabgacha pedagogika” - T.: Ma'naviyat 2019 y.
7. Kayumova N. “Maktabgacha pedagogika”. TDPU nashriyoti T.: 2013 y. 14b
8. Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika” TDPU nashriyoti -T.: 2017 y.
9. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. To‘ldirilgan qayta nashr. –T.: TDPU, 2017 y.
10. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.2018. 12-14-b
11. Sodiqova SH.A. “Maktabgacha pedagogika”, “Tafakkur sarchashmalari” -T.: 2013 y.

12. To'raxonova Z, Sayriddinov D. "Tarbiyachining ma'naviy qiyofasi" O'quv qo'llanma T- "Sharq nashriyoti" 2016-y 46-47-b
13. Ko'chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO 'LAJAK O 'QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O'RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783.
14. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140.
15. Ko'chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O 'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1.
16. Atamurodova Q. G. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 771-774.
17. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140
18. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447
19. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447

20. Ko‘chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O ‘QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI // "Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1
21. Ko‘charova D., Ko‘chkinova M. XURSHID DO ‘STMUHAMMAD NASRIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 703-707
22. Ko‘charova D., Ko‘chkinova M. ABDULLA QODIRIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 714-716
23. Ko‘chkinova Makhliyo Norbutayevna, & Ravshanov Muhammad G‘afur o‘g‘li. (2021). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE LIVES OF CHILDREN WITH DISABILITIES. European Scholar Journal, 2(6), 193-194. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article>.